

1-SINFLARDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARGA SAMARALI YECHIMLAR.

*Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika Fakulteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi
1-bosqich magistranti
Omonboyeva Oynisa Rasuljon qizi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 7 va 8 yoshdagi bollarga xorijiy til (ingliz tilini) o'rgatish mobaynida yuzga keladigan muammolar, ularni til o'rganishga qiziqtirish. 16 va 17 yoshdagi o'quvchilar bilan 7 va 8 yosh òrtasidagi o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan layoqatlari qandayligi aniqlangan. Tadqiqot metodi ushbu yoshdagi òquvchilarning òzlashtirishlari kuzatishlar orqali aniqlangan. Shu bilan bir qatorda xorijiy til òqitishda yo'l qo'yadigan xatolar va bularga samarali metodika va qiziqarli o'yinlar orqali yechimlar keltirib o'tilgan. Tadqiqot natijalari darsda òquvchilarni zeriktimasdan, qiziqarli tarzda til òrgatish mumkinligi kuzatilgan. Xulosa qilib aytganda, til òrgatish murakkab jarayon, lekin turli xildagi metodlar orqali samarali òrgatish mumkinligi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *dolzarb muammolar, xorijiy tillar, yechimlar, metodikalar, grammatika, test, talaffuz, o'quv ko'rgazmalar, fan, tanqid, baholash tizimi, og'izaki nutq.*

Bugungi kunda mamlakatimizda juda ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Ta'lim, iqtisod, siyosat va boshqa sahalarda bu islohotlar o'z aksini topgan. Aholiga xorijiy tillarni o'rgatish, dunyo talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangani ayni haqiqatdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 34-sonli "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq xorijiy tillarni samarali o'qitish uchun turli xildagi loyihalar, metodikalar ishlab chiqish bugungi kun talabidir.[1] Ushbu qarorga asoslangan holda xorijiy tillarni o'qitishda juda ko'plab muammolarga duch kelinmoqda va bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribalariga asoslangan holda ingliz tilini bolaning yoshligidan òrgatish samaraliroq natijalar ko'rsatgan. Ammo kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini òrgatish juda murakkab jarayon hisoblanadi. O'zbekistondagi 1-sinf o'quvchilari asosan 6 - 7 yoshli bolalarni o'z ichiga oladi. Ayni bu yoshdagi bolalar o'z ona tillarida yaxshi o'qib yoza olishmaydi. Ammo ularning nutqlari yaxshi shakllangan bo'lib rivojlanish bosqichida bo'ladi.

Ko'pincha ushbu yoshdagi bolalarga ikkinchi til sifatida ingliz tili o'rgatilsa, o'z ona tilini bilish darajasiga e'tibor berish lozim. Ya'ni u o'qish, yozish, tinglash, gapirish kabi qobiliyatlaridan ayni vaqtda qay birini shakllantira oladi degan savolni qo'yish lozim.

AQSHning Massachusetts texnologik universiteti neyro-kognitiv fanlar markazi mutaxassisleri xorijiy tillarni o'rganishni boshlash uchun eng yaxshi yoshni

ma'lum qilishgan. Natijada xorijiy tilni o'sha tilda so'zlashuvchilar kabi mukammal egallashda eng katta imkoniyatlarga tilni o'rganishni 10 yoshgacha boshlaganlar egaligi aniqlangan. 18 yoshdan keyin ham tilni tez o'rganishga layoqat saqlanib qoladi, biroq uni mukammal egallash ancha qiyinroq bo'lar ekan. [2].

Yuqoridagi fikrlar tog'ri ekanligini isbotlash va bizning o'zbek tilida ta'lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi maktablarda chet tili(ingliz tilini) o'rganishi qay holatda davom etishini kuzatish uchun Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanida joylashgan 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi 10"A" va 1"B" sinflarni kuzatdim. 10-sinf o'quvchilarining yoshi 17 va 16 yoshlilarni o'z ichiga oladi. Demak, tajriba 7, 8, 17, 16, yoshli o'quvchilar orasida kuzatilgan. 16, 17 yoshli o'quvchilar so'z yodlashga qiynalishadi va ular asosan yozma nutqda faol ammo grammatika test va yozish bo'yicha juda ham yuqori natijalar ko'rsatishadi. Ushbu yoshdagi o'quvchilar mustaqil o'qiy oladi. Ammo ular orasida 10 yoshigacha ingliz tilini o'rganish uchun so'zlar yodlagan va alohida shug'ullanganlari kam qiyinchilikka duch kelishadi. Deyarli ularning ingliz tilidagi so'zlarni talaffuz qilishda xatoliklar uchramaydi.

Endi 7 va 8 yoshli o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda o'rgana olmaydilar. Ularga so'z yodlatish, yozish va gapirishni har bir bosqichda yelkadosh bo'lib turish zarur. Boshida kichik yoshdagi bollarni o'qitish juda murakkabdek ko'rinadi. Ularni o'qitish uchun zarur va foydali bo'lgan metodikalar juda zarur. Ayniqsa ko'plab o'qituvchilar o'quvchilarning ko'p shovqin qilishlari, bir joyda ko'p o'tira olmasligidan yoki belgilangan vaqt yetmayotganidan shikoyat qilishadi. Lekin 7 va 8 yoshdagi bolalar harakati boshqa yoshdagi bolalarga qaraganda tezroq va ko'proqligi til o'rgatishda ayni muaddao bo'ladi. Ammo ushbu yoshdagi bolalarga har bir so'zni imkon qadar eng to'g'ri talaffuzini yodlatish zarur. Chunki bola bir marta o'rgangan so'zini doimiy ravishda o'sha holatda talaffuz qiladi, keyinchalik xato bo'lsa ham o'shandek talaffuz qilishga moslashgan va o'zgartirish qiyinroq.

O'qituvchi kichik yoshdagi bolalarni o'qitmoqchi ekan eng avvalo o'z oldiga nimani o'qitish kerakligi haqida maqsad qo'yib olishi lozim va bu belgilangan vaqtga mos bo'lishi kerak. Maktablarda har bir fan mashg'ulotlari uchun 45 minut vaqt belgilab qo'yilgan. Asosan 1-sinf o'quvchilariga mevalar, hayvonlar, qarindoshlar nomlarini qanday atash, sanash shu kabi mavzular o'rgatiladi. Kichik bolalar bir xillikni yoqtirmaganligi tufayli har dars o'tishim mobaynida xilma-xillikdan foydalanaman.

Eng avvalo bugungi darsda nima o'rgatmoqchisiz shuni bilib oling. Shunga moslab turli xildagi o'quv ko'rgazmalar tayyorlash kerak. Masalan bugun uy hayvonlarini va yovvoyi hayvonlarni o'quvchilarga o'rgatilishi kerak. Birinchi uy va yovvoyihayvonlarni rasmlarini chizish, yoki ularni rasmlarini yig'ib, ikki guruhga ajratib olinadi va buni kattakon oq qog'ozga ikki qismga bo'lgan holda yopishtiriladi. Ya'ni Domestic animals(uy hayvonlari) va Wild(animal) yovvoyi hayvonlar va albatta har bir jonivorlarni bolalarini ham yopishtirish esdan chiqmasin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar so'zlarning oldiga rasm qo'yib yodlasangiz, eslab qolish ehtimoli oshar ekan. [3] Shuning uchun rasmlardan foydalangan ma'qul. Va bunga qo'shimcha tarzda bir o'yin ham topib qo'yish kerak.

Demak birinchi navbatda, dars boshlashdan oldin noan'anaviy tarzda salomlashing. Misol uchun hamma o'quvchilarni bir qator qilib turgizib, birinchi o'zingiz ko'rsatib bering. O'ng qo'lni ko'tarib *Hello, how are you* deb silkiting. Bu gaplaringiz qo'shiq kabi chiqsin va chap qo'lingizni ko'tarib, *Hello, I am fine thank you* deng. Keyin o'quvchilarni barchasi bu so'zlarni ortingizdan qaytarishiga undang. So'ngra barchani o'tiring dengda bugungi mavzuni e'lon qiling. Siz tayyorlagan rasmlarni barchaga ko'rinarli joyga iling va biz bugun shu jonivorlarni o'rganimiz deng va ularga savol bering kimni qanday jonivori bor va qaysi jonivor sizga yoqadi deb navbatma-navbat so'rang. Chunki bu tayyorlagan o'yinimiz uchun zarur. So'rab bo'lgandan keyin, har bir hayvonni ingliz tilida qanday aytilishini aytib bering albatta ikki guruhga ajratgan holda va birgalikda bir necha marotaba takrorlang. Ularni yodida qolganiga ishonch hosil qilgach, o'yinni boshlang. Bu o'yinni nomi "*Bu hayvon qaysi*" deb nomlanadi. Bitta ixtiyoriy o'quvchini tanlaysiz va uni xonadan tashqariga chiqarasiz va sinfdagi o'quvchilarga shartni tushuntirasiz. Hozir sinfdoshingiz qaysidir hayvonga taqlid qiladi va siz uni ingliz tilida o'zi va bolasining qanday atalishini topasiz deysiz. Keyin siz ham sinf xonasidan chiqib tanlab olingan o'quvchiga shartini tushuntirasiz va undan o'zi yoqtirgan hayvoning harakatlariga taqlid qilishini so'raysiz.

Shunday qilib, kim topsa o'sha o'quvchini aktyorlik lavozimiga olasiz. Bu o'yin ham qiziqarli ham so'zlarni eslab qolishga katta yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan xilma xillik shunday bo'lishi kerak. O'qituvchilar ham shu kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'yish kerak. Ingliz tili qandaydir murakkab fan emas. Uni qiziqarli va eng yaxshi metodlar orqali o'qitiladi. Men ana shunday metodlar qo'llaganim tufayli eng past o'zlashtirayorgan o'quvchilar ham endi so'z yodlashda qiyinchilikka duch kelishmayapti.

Ko'plab ustozlarning yo'l qo'yadigan yana bir xatosi o'quvchilar uchun berilgan kitoblarga yopishib olishidir. Afsuski, maktabdagi ingliz tili kitoblari qaysidir mavzuni yoritish uchun emas, siz darsingini rejalashirish va o'quvchilarga mavzuni to'liqroq tushunish, mustahkamlash uchun beriladi. Masalan, 1-sinflar uchun berilgan ingliz tili kitobida ranglar mavzusi berilgan, va o'qituvchi avval ranglar qanday atalishini haqida aslida o'quvchi o'z ona tilisida ranglarni ajrata oladimi bu kabi masalalarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Avval o'zbek tilida ranglarni ko'rsatib bu qaysi, bu qanday rang kabi savollarni bering. Agar o'quvchilar o'z tilida ushbu ranglarni farqlay olsagina, keyin ingliz tilida o'rgating.

Kichik yoshdagi bolalar xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirishadi faqatgina og'izaki nutqda va tinglash orqali. Shu sababli ham ularga ko'proq so'zlarni yodlatish va buning uchun rasmlar, turli xildagi videolar, qiziqarli foydalanish zarur. Bu kabi omillar o'quvchilarning yaxshi o'zlashtirishi, til o'rganishga bõlgan qiziqishini oshirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz>
2. <https://oyina.uz>
3. <https://prep.uz>
4. <https://gigafox.ru>